



QORAQALPOG'ISTONDA TURKMAN MILLIY MADANIY MARKAZINING MADANIY MEROSNI SAQLASH VA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHDAGI FAOLIYATI

Opaev Baymurat

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti, Nukus shahri.
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng milliy madaniyat va qadriyatlarni tiklash, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada milliy madaniy markazlarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Xususan, Turkman milliy madaniy markazining madaniy merosni saqlash va milliy o'zlikni anglashdagi roli beqiyosdir.

Bugungi globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni o'rganish va ommalashtirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turkman milliy madaniy markazi bu borada faol ish olib borib, turkman xalqining boy madaniy merosini saqlash, uni kelajak avlodlarga yetkazish va milliy o'zlikni anglashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida yurtimizda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, millatlarning tili, madaniyati, urf-odat, an'analarini saqlash va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bu yo'nalishda turli milliy madaniy markazlarning faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Shulardan biri, Qoraqalpog'istondagi turkman milliy madaniy markazi o'z faoliyati orqali millatlararo totuvlikni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Markaz tomonidan turkman xalqining boy tarixi, madaniyati va an'analarini keng targ'ib qilish, ayniqsa, yosh avlodni o'z milliyligi ruhida tarbiyalash bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha millatlar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mahalliy o'zbek, qorqalpoq, qozoqlar va turkman xalqlarining do'stlik aloqalari asrlar davomida shakllanib kelmoqda. Bunga tarixiy, madaniy va ma'naviy yaqinlik yorqin dalil



bo'la oladi. Ayniqsa, ikki xalqning og'zaki ijodkor shoirlari asarlarida o'zaro hurmat, hamjihatlik g'oyalari o'z aksini topgan.

Akademik Sabir Kamalovning ta'kidlashicha, mintaqadagi xalqlarning bunday aloqalari erta davrga borib taqaladi: “Qoraqalpoqlar, o'zbeklar, qozoqlar va turkmanlar iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. O'zbeklar va turkmanlar qoraqalpoqlardan baliq va chorva mollari sotib olgan. O'z navbatida, qozoqlar, turkmanlar qoraqalpoqlardan gazlama va boshqa tovarlar olgan”[1, 8]. Shunday qilib, bu xalqlar o'rtasida o'z ehtiyojlarini qondiradigan va mintaqa iqtisodiyotining rivojlanishiga yordam beradigan faol tovar ayirboshlash amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillari Qoraqalpog'iston Respublikasining barcha aholisi, shu jumladan, turkman diasporasi uchun ham katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'istonning turkmanlari o'zlarining milliy madaniyatini, tilini, urf-odatlarini saqlab qolish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ldi. Bu davrda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar turkmanlarning kundalik turmush tarziga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Mustaqillik yillarida turkmanlarning turmush sharoitlari yaxshilanishi, ta'lim va madaniyat sohalaridagi imkoniyatlari kengayishi, milliy o'zlikni anglash hissi ortishi kabi jarayonlar ro'y berdi. Xususan, turkman tilida maktablar ochilishi, ommaviy axborot vositalarida ona tilida eshittirishlar ko'payishi, madaniy markazlar tashkil etilishi turkmanlarning o'z madaniyatini saqlash va rivojlantirish yo'lidagi muhim qadamlar bo'ldi.

Mustaqillikdan keyingi davrda Qoraqalpog'istondagi turkmanlarning kundalik hayotida yuz bergan o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishi, ta'lim, madaniyat sohalaridagi yutuqlar, milliy o'zlikni anglash tuyg'usining ortishi va kelajak istiqbollari keng tarzda tahlil qilindi.

1995 yilda “Вести Каракалпакстана” gazetasiga bergan intervyusida O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov Turkiston xalqlarining o'zaro munosabatlarini mustahkamlashning ahamiyatini ta'kidlagan. U o'z so'zlarida, “Turkiston - umumiy uyimiz” g'oyasi asosida tashkil etilgan xalq harakatining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tdi. Ushbu harakat xalqlar



o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga, ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohalarida o'zaro ta'sirni kuchaytirishga qaratilgan. Odil Yoqubov ushbu forumning davlat yoki siyosiy emas, balki xalqlar o'rtasidagi ma'naviy yaqinlikni kuchaytirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tdi. U Turkiston xalqlarining kelajagi tinchlik va totuvlikda ekaniga ishonch bildirgan[2, 4].

U turkman do'stlari ham bu g'oyani qo'llab-quvvatlaganini va o'zlariga yo'llagan maktublarida tasdiqlashganini aytdi. Bu xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga, ilm, madaniyat va adabiyot sohalarida o'zaro ta'sirni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

Qoraqalpog'istondagi turkmanlarning aksariyati respublikamizning Turkmaniston bilan chegaradosh va shu chegaraga yaqin tumanlarida To'rtko'l, Beruniy, Ellikqal'a, Amudaryo, Xo'jayli, Taxiatosh, Shumanay tumanlarida yashaydi. Tarixiy jihatdan olganda, turkmanlar Markaziy Osiyoning ko'chmanchi hayot kechiradigan xalqlaridan bo'lgan. Ular o'troq hayotga kech o'tgan va bu borada qo'shni o'zbek, qoraqalpoq va qozoq xalqlarining tajribalarini o'zlashtirgan.

Qoraqalpog'istonda yashovchi turkmanlar mahalliy madaniyat bilan chambarchas bog'langan. Ularning hududdagi boshqa xalqlar, ayniqsa o'zbeklar, turkmanlar, qozoqlar va qoraqalpoqlar bilan madaniy aloqalari natijasida o'zaro tajriba almashish yuzaga kelgan. Bunga misol sifatida Qoraqalpog'istonning yuqorida aytilgan tumanlarida turkmanlar ko'pchilikni tashkil etishini ko'rsatishimiz mumkin.

2001 yil 7 mayda Respublika turkman madaniyat markazi tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda uning tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasining Turkman milliy madaniy markazi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlaridagi hamda Toshkent shahridagi hududiy bo'limlari kiradi[3,44].

Qoraqalpog'iston Respublikasi turkman milliy-madaniy markazi Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 16 dekabrda ro'yxatdan o'tkazilgan[4]. Markazning asosiy maqsadi - Qoraqalpog'istonda istiqomat qilayotgan turkman millati



vakillarining tilini, madaniyatini, milliy urf-odatlarini saqlash hamda rivojlantirish, shuningdek, millatlararo totuvlikni va o'zaro hurmatni mustahkamlashdan iborat.

O'tgan davr mobaynida markaz turkman xalqining boy tarixi va madaniyatini targ'ib etish bo'yicha ko'plab muhim chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ular orasida turli ilmiy-amaliy konferensiyalar, madaniy kechalar, san'at ko'rgazmalari va konsertlar bor. Bu tadbirlar turkman xalqining milliy o'ziga xosliklarini namoyish etish bilan birga, boshqa millatlar madaniyatiga ham qiziqish uyg'otdi.

Markazlar faoliyatiga turkman xalqi zich yashaydigan joylardagi 40 dan ortiq turkman tilida o'qitiladigan maktablar, Qoraqalpoq davlat universitetidagi turkman filologiyasi fakulteti, turkman tilida o'qitadigan o'qituvchilarni tayyorlash uchun Beruniy shahridagi pedagogika kolleji, shuningdek respublikada turkman tilida kitoblar, gazetalar chiqarish, radio va teledasturlar tayyorlash ko'maklashadi. Yoshlar bilan ishlash doirasida markazlar qoshida badiiy havaskorlik guruhleri tashkil etilgan. Ular orasida Qoraqalpog'istondagi turkman markazining "Orzu" xalq ansambli alohida mashhur[3, 44].

Madaniy markaz yoshlarning bilim olishi va ma'naviy jihatdan kamol topishiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Markaz qoshida turkman tili va adabiyoti bo'yicha to'garaklar, milliy cholg'u asboblarida chalishni o'rgatish kurslari uzluksiz faoliyat yuritmoqda. Bunda yosh avlod turkman tilini o'rganish, milliy folklorini o'zlashtirish va o'z ota-bobolarining boy madaniyatini chuqurroq bilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, turkman madaniy markazi o'z faoliyatida xalqaro munosabatlarni ham rivojlantirib kelmoqda. Turkmaniston Respublikasining madaniy markazlari va tashkilotlari bilan yaqin aloqa o'rnatilgan. Bu o'z navbatida ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy aloqalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Markaz kelgusida ham Qoraqalpog'istonda millatlararo totuvlikni saqlash, turkman madaniyatini rivojlantirish va xalqaro aloqalarni kuchaytirish yo'lida o'z hissasini qo'shishni davom ettiradi.

Turkman milliy madaniy markazi shu davr mobaynida millatlararo munosabatlarni mustahkamlashda, turkman madaniyatini keng tarqatishda katta ishlarni amalga oshirdi.



Markaz tomonidan turli madaniy tadbirlar, festivallar, ko'rgazmalar tashkil etilib, ularda turkman xalqining tarixi, madaniyati va ijodi keng yoritildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l shahrida faoliyat yuritayotgan markaz 2002 yildan buyon Jahon turkmanlarining insonparvar tashkiloti a'zosi hisoblanadi. Markazda turkman tilida chop etiladigan "Mekan" gazetasi tahririyati, turkman va boshqa xalqlar tillaridagi adabiyotlar jamlangan kutubxona joylashgan. Bugungi kunda To'rtko'lning o'zida 20 dan ortiq maktabda ta'lim turkman tilida olib boriladi. O'zbekistonda turkman tilidagi maktab darsliklari qoraqalpog'istonlik mualliflar tomonidan ham tayyorlanmoqda[5, 64].

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'istonda Turkman milliy madaniy markazining faoliyati turkman xalqining boy madaniy merosini saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol o'ynamoqda. Markaz tomonidan amalga oshirilayotgan tadbirlar, jumladan, madaniy tadbirlar, folklor ansambllarining chiqishlari, hunarmandchilik ko'rgazmalari, til kurslari va adabiyot kechalari turkman diasporasining madaniy o'zligini saqlashga, yosh avlodda milliy g'ururni shakllantirishga va turkman tilini o'rganishga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар (References)

1. Камалов С. Хорезм оазиси халықларының дослығы ҳаққында. Нөкис: 1961.
2. Ташходжаев А. Чувство семьи единой/Вести Каракалпакстана, 11.11.1995, №90.
3. Межнациональное согласие в Узбекистане Юрта. Аналитическая справка, май 2023 г. Уфа: 2023.
4. Электрон ресурс: <https://orginfo.uz/organization/1df7c7880649>. Қаралган вақти 18.10.2025. 17:00
5. Сейтимбетова Н. Қорақалпоғистон Республикаси туркман миллий маданий маркази//Ўтмишга назар, Тошкент, 2021. 4-жилд, 4-сон.